

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

YER RESURSLARIDAN BARQAROR FOYDALANISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI MATERIALLARI
TO'PLAMI



2025-YIL
18-19-APREL

“Yer resurslaridan barqaror foydalanish va raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami - Qarshi “Intelлект” nashriyoti, 2025-yil.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plamiga geodeziya, kartografiya va kadastr hamda yer kadastr va yer tuzish yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talaba-yoshlar hamda ishlab chiqarish korxonalarining yetakchi muhandislarining iqtisodiyot va ijtimoiy sohada yer resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida topografik karta va planlarni elektron shaklga o‘tkazish, yer monitoringi natijalarini geoportal tizimida integratsiyasini yo‘lga qo‘yish, shahar va shahar tipidagi aholi punktlarini UzKARD tizimida ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda tegishli korxonalar va tashkilotlarga integratsiya qilish kabi dolzarb masalalari bo‘yicha maqolalari va tezislari kiritilgan.

Taqdim etilayotgan ilmiy maqolalar ma’lumotlaridan oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda sanoat tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan mutahassislar ilmiy tadqiqot ishlarida va amaliyotda qo‘llashda foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Qodirov I.E.- “Yerdan foydalanish, geodeziya va geoinformatika” kafedrasida dotsenti, t.f.f.d (PhD).

Tahrir hay’ati:

R.A.Turayev
J.Usmonov
A.Qurbonov
A.N.Inamov
A.R.Qodirov
B.Muqimov

D.Quvvatov
Sh.Hazratqulova
K.N.Xo‘jakeldiyev
I.E.Qodirov
J.Ch.Urinov
H.V.Amankulova

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga maqola mualliflar mas’uldir.

Manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri Xonobod shox ko‘chasi, 19-uy
Telefon: +99890 777 01 23



quriladigan uy-joylar qavatini oshirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanishga erishiladi.

Mavjud yer balansi asosida kelgusi 5 yil uchun o‘rta muddatli qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar prognozini ishlab chiqish, ularda eksport salohiyatini oshirish uchun hududlarni rivojlantirishga qaratilgan prognoz ko‘rsatkichlari asosida ish yuritish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezideti Sh.M.Mirziyovning 2020-yil 7-sentabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi
3. O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati O‘rta chipchiq tumani hisobot malumotlari (Tuman pasporti).
4. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi.
5. O‘zbekiston Respublikasi miliy hisoboti
6. www.ygk.uz
7. www.google.com
8. www.esri.com

MDH DAVLATLARDA YER RESURSLARINI BOSHQARISHNING ILG‘OR USLUBLARI

Ataullayev Jafar - o‘qituvchi,
Qarshi Davlat texnika universiteti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada MDH davlatlarida yer resurslarini boshqarish, ulardan oqilona foydalanish, yerlardan oqilona foydalanish va yerlarni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, atrof muhitni yaxshilash bo‘yicha tavsifi keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Yer resurslarini boshqarish, bozor munosabatlari, muxofaza qilish, MDH davlatlari, fermer, tuproq unumdorligi.*

***Аннотация.** В данной статье описано управление земельными ресурсами в странах СНГ, их рациональное использование, рациональное использование земель и охрана земель, сохранение и повышение плодородия почв, улучшение окружающей среды.*



Ключевые слова: Управление земельными ресурсами, рыночные отношения, охрана, страны СНГ, фермер, плодородие почв.

Abstract. This article describes the management of land resources in the CIS countries, their rational use, rational use of land and land protection, maintaining and increasing soil fertility, and improving the environment.

Key words: Management of land resources, market relations, conservation, CIS countries, farmer, soil fertility.

Kirish. MDH davlatlarida yer resurslarini boshqarish asosan respublikamizda yuritilayotgan Yer resurslarini boshqarishning tamoyillariga hamda vazifalariga yaqin uslubda olib boriladi. Ammo shu bilan bir qatorda ba'zi bir xususiyatlarga egadir. Bunday xususiyatlar asosan MDH davlatlarida yer maydonlarining bir qismini xususiylashtirilganligi, to'g'ridan – to'g'ri bozor munosabatlariga tortilganligi bilan bog'liqdir.

Rossiya federatsiyasida yer kadastrini yuritish asosan yer resurslari va yer tuzish Davlat qo'mitasiga yuklatilgan. Davlat qo'mitasi o'z faoliyatini Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyasiga, qonunlariga, Prezidenti farmonlariga, Davlat dumasining va Rossiya Federatsiyasi hukumatining qarorlariga muvofiq holda amalga oshiradi.

Rossiya Federatsiyasi yer resurslari va yer tuzish Davlat qo'mitasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ❖ yerlardan oqilona foydalanish va yerlarni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, atrof muhitni yaxshilash bo'yicha davlat siyosatini o'tkazish;
- ❖ yerlarni xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni tashkil etish va o'tkazish;
- ❖ yerdan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha davlat nazorati;
- ❖ davlat yer kadastrini va monitoringini yuritish;
- ❖ yer tuzish, davlat yer kadastrini va monitoringi ishlarini tashkil etish va o'tkazish;
- ❖ federal va boshqa yerlar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini yuritish;
- ❖ yerdan oqilona foydalanish va xo'jalik yuritishning barcha shakllarini rivojlantirishning iqtisodiy manfaatdorligi bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

Germaniya tajribasi - Germaniya yer qonunchiligida qishloq xo'jalik yerlariga bo'lgan mulkchilik va yer ijarasidagi har qanday o'zgarishlarni qat'iy hisobi va nazorati o'rnatilgan. Masalan, barcha qishloq xo'jalik yer turlaridan foydalanish boshqa sub'ektga o'tishidagi foydalanish bo'yicha huquqlarni o'tishida uchta ko'rinishda masalan maxsus xal qilishni talab etadi:



Birinchiidan, qishloq xo'jalik yerlarini noqishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanishga o'tgandagi huquqiy maqom;

Ikkinchiidan yer uchastkasini 1 gektardan kam bo'lgan maydonda xo'jalik yuritish, ya'ni «parchalanib» ketish xolatlari kuzatilganda;

Uchinchiidan 400-500 gektardan iborat bo'lgan yirik yer egaliklarini paydo bo'lishini oldini olishga qaratiladi.

Germaniyada qishloq xo'jalik yerlarini boshqa maqsadlarda foydalanishga qonunchilik asosida yo'l qo'yilmasa ham qonunga asosan jamoat ehtiyojlari uchun ma'lum xajmda yer ajratish holatlari kuzatiladi.

Shveysariya tajribasi - Shveysariya davlatining «Yer mulkchiligi to'g'risida»gi qonunida (1994 y.) yer siyosatni yuritish maqsadida yer faqat undan bevosita foydalanuvchiga mulk sifatida birlashtirilishi qayd etilgan.

Bundan tashqari qonunda fermerning optimal (maqbul) yer maydonining minimal va maksimal miqdori ham belgilab qo'yilgan.

Masalan, fermerning minimal yer maydonini belgilashda o'rtacha bitta ishchini yil davomida mehnat bilan band bo'lishi 75% dan, ya'ni 2100 soatdan kam bo'lmagan, holda shu ko'rsatkichning maksimum qiymati esa 2,5-3 ishchini yillik daromadi darajasidan ortmasligi belgilab qo'yilgan.

Shveysiyada yerni meros qilib qoldirishda yaxlit yer maydonini saqlab qolish maqsadida va yerdan foydalanishga oid boshqa masalalarni hal etishda davlat tomonidan tartibga solishga yuqori darajada e'tibor qaratiladi.

Bunda asosan sub'ektlar tomonidan yerlarni ikkilamchi va uchlamchi ijaraga berish, fermer xo'jaligini hayotiy ehtiyojlarini himoya qilish va rentabelli faoliyat yuritishiga e'tibor qaratilgan.

Fransiya tajribasi - Fransiyada agar fermerning yeri bir nechta merosxo'rlar o'rtasida taqsimlanganda «merosxo'r ustuvorligi» tamoyili qo'llaniladi.

Bunda mahalliy sud tomonidan eng malakali merosxo'r tanlanadi va xo'jalik yuritish unga topshiriladi.

10 yil muddatda u boshqa merosxo'rlar ulushini to'lashi belgilab qo'yilgan. Yer merosi masalasida boshqa yechimlar ham tavsiya etiladi, ya'ni merosxo'rlarni guruh bo'lib xo'jalik yuritishda, ularni o'zaro kelishuviga asosan manfaatlari uyg'unlashgan holda yerdan samarali foydalanish ta'minlanishi ko'zda tutiladi.

AQSh tajribasi - AQShdagi yer uchastkasini xususiy lashtirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, unda bozorni erkin lashtirishga katta e'tibor qaratilib, yerdan foydalanish masalalarida markazlashtirishga qarshi tadbirlar ishlab chiqilgan.

Yer siyosati asosiy shtatlar darajasida shakllanib, ko'pchilik Yevropa davlatlardan farqi shundaki, yer siyosatini yuritishda ma'suliyat pog'onali ya'ni idoraviy emas balki funksional ko'rinishga ega. Bu davlat Qonunchiligida qishloq xo'jalik yerlarini saqlash va muhofaza qilishga katta e'tibor qaratilgan. Bunda yer



solig'ini yuritishda imtiyozlar belgilangan bo'lib, yer solig'i yerning o'rtacha yillik bozor bahosi qiymati asosida hisoblab chiqiladi, ya'ni yerdan oqilona, qulay va samarali foydalanish tamoyiliga asoslanadi.

Yaponiya tajribasi - Yaponiyada yer qonunchiligi ikkinchi jahon urushidan keyingi o'tkazilgan agrar islohotlarga asosan yaratilgan. O'tkir yer tanqisligi, qshloq xo'jaligi yerlari maydonining chegaralanganligi va shaharlarni dehqonchilik tumanlariga nisbatan yer egallash bo'yicha taziqi evaziga davlat tomonidan qishloq xo'jalik yerlarini muhofaza qilish bo'yicha kuchli siyosat yuritib kelinmoqda.

Xitoy tajribasi - Xitoyda yerga egalik, ijara huquqi yoki ularning birgalikdagi huquqi joriy qilingan.

Xitoyda yer oldi-sotdi ob'ekti bo'la olmaydi va yerga bo'lgan mulkchilik bozori yo'q bo'lib, egalik huquqi doimiy emas, balki o'zgaruvchan maqomga ega.

Lekin, yer bozori ob'ekti bo'lib undan foydalanish huquqi belgilangan. Shuning uchun Xitoyda yer bozori deganda, foydalanish huquqini bir sub'ektdan ikkinchisiga o'tishi tushuniladi.

Bunda yerga bo'lgan huquq yerdan foydalanish, ijara va garov shakllaridagi keng qamrovli ma'noni bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastri to'g'risida" gi qonuni. 1998 yil 28 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi 22-sonli Qarori Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida.
3. Raxmonov Q.R. Yer monitoringi asoslari. O'quv qullanma. TIMI, Toshkent, 2008.
4. Raxmonov Q.R., Bobojonov A.R, Gofirov A.J. Yer kadastri. Darslik. Toshkent TIMI, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», T., «Adolat», 1998 y.

Internet saytlari:

- 1.<http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/61219>
- 2.<https://www.gazeta.uz/uz/2017/12/10/qishloq-xujaligi>



MUNDARIJA

I SHO‘BA. YER RESURSLARNI BARQAROR BOSHQARISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI		
1	O.O‘.Davronov, Sh.R.Aliqulova. Yaylov yerlaridan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribalar	5
2	U.X.Niyazmetov, Z.T.Tojiyev. Toshkent viloyati, parkent tumani hududida tarqalgan lalmi hududlardan foydalanishning mavjud holati	13
3	H.X.Tashbayeva. Yer hisobini yurutishda beidou navigatsiya tizimini qo‘llash	19
4	O.O.G‘aniyev. Tabiiy yaylovlarda dorivor o‘simliklarning tarqalishini aniqlash va ularni gis texnologiyalar asosida xaritalash	24
5	J.Ch.Urinov, Y.Sh.Yuldosheva. O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasi va unga qurib olingan binolarga kadastr hujjatlari berish (Nishon tumani misolida)	29
6	Y.Sh.Yuldosheva. Tomorqa yerlaridan samarali foydalanishning huquqiy va ijtimoiy asoslari	36
7	A.S. Khakberdiyev. Basic global research trends on cadastre: a bibliometric analysis (2002-2012)	40
8	X.B.Meyliyeva, M.J.Jabborova. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	46
9	S.Sh.Ishmurodova. Yer munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zarurati	51
10	M.L.Erkinova. Yer resurslaridan samarali foydalanishda hududiy yondashuvlarni qo‘llash	55
11	J.R.Ataullayev. MDH davlatlarda yer resurslarini boshqarishning ilg‘or uslublari	59
12	J.R. Ataullayev. Qishloq xo‘jaligi yerlarining chegaralarini aniqlash usullari	63
II SHO‘BA. GEODEZIYA FANI VA SOHASINING MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI		
1	A.O.Axmatov - Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy, huquqiy asoslari va muammolari	71
2	J.CH.Urinov - O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarning belgilash tajribasi	75
3	N.SH.Rasulov - Dronlarning qishloq xo‘jaligidagi o‘rni	83
4	N.SH.Bobojonov - Gidrotexnika inshootlarining hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati	90

